

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. Imzo

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: **1701320**

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Sariq rang ozodlikka va kuch -quvvatga intilish, ochiqlik, faollik, shuningdek, hayotga umidvorlik ramzidir. Ushbu gapda yasali sh asosi yasama sifatga mansub bo'lgan so'z(lar) qanday sintaktik vazifa(lar)ni bajargan?
A) *ega, to'ldiruvchi*
B) *to'ldiruvchi, aniqlovchi*
C) *kesim*
D) *aniqlovchi*
2. Dimariq hali hech him va hech nima loyqalatib ulgurmagani uchun tip-tiniq, mayin oqmoqda. Ushbu gapda mustaqil so'z turkumlariga oid so'zlarning nechitasi ismlar guruhiga mansub emas?
A) 2 tasi B) 3 tasi C) 4 tasi D) 5 tasi
3. Qaysi gaplarda otlashgan sifatdosh bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchining kesimga tobelanishi kuzatiladi?
1. Bilmagandan bilgan yaxshi, to'g'ri ishni qilgan yaxshi.
2. O'tirganlar otning baland ovozd kishnaganini eshitishdi.
3. Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan yetar, Sha'niga barcha el rahmatlar aytar.
4. Topganingdan yo'qatganing ortiqcha bo'lmasin, -dedi nabirasiga.
A) 1, 3 B) 1, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 3, 4
4. Qaysi gapda qatnashgan o'zaro shakldosh qo'shimchalar urg'u olish yoki olmasligiga ko'ra farq qiladi?
1. Kechgi taom payti tog'da ko'chki bo'lganligi haqida xabar berildi.
2. Bu yigitcha o'zini oqlashga tirnoqcha nasos topolmadi.
3. Qat - qatgina qatlama, aqling bo'lsa, tashlama.
4. Qadrdon kundaligim, senga hech bir so'z yozmaganimga ancha bo'ldi, mana, bugun qalamdon ichidagi qalamimga yana qo'l uzatdim.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 2, 3 D) 1, 4
5. Qaysi gapda barcha yopiq bo'g'inlardagi til undoshlari nisbatan ko'proq?
A) *Guvoah sudga ketdi, qo'shnim sutga ketdi.*
B) *"Hamma balo tildan keladi", - deydi bobom.*
C) *Tursun tomida tursun.*
D) *Eng buyuk jasorat bu- ma'naviy jasoratdir.*
6. Tarkibida turlangan so'z qatnashmagan gaplar to'liq berilgan javobni aniqqlang.
1. Bu voqea xuddi kechagina bo'lgandek, ammo darrov uch yil o'tibdi.
2. Chuqur va xayolchan ko'zlarida sirli va sehrli bir holat aks etadi.
3. Yigit to'satdan gandraklab borib tizzalab qoldi.
4. Shu payt birdan eshik sharaqlab ochildi-yu, Erto'yev kirib keldi.
A) 1, 3, 4 B) 3, 4 C) 1, 3 D) 1, 2, 4
7. **Qorabotir yurtning erkasi, jo'ralarning serkasi edi.** Ushbu gapdagi qaralmishlar haqida noto'g'ri hukmni aniqqlang.
A) *egani tobelantirib kelgan*
B) *uyushiq murakkab kesim vazifasini bajargan*
C) *aniqlovchi vazifasini bajargan*
D) *aniqlovchini tobelantirib kelgan*
8. Qaysi gapdagi so'zlar tarkibida ismlarning va fe'llarning munosabat shakllari o'zaro omonimligini namayon qilgan?
A) *Mevali daraxt yerga engashar.*
B) *Onangni kaftingda tutsang, singlingni kiftingda tut.*
C) *Aytsam, tilim kuyadi, aytmasam-dilim.*
D) *Chin do'st - tug'ishganing bilan teng.*
9. Berilgan so'zlardan qaysilarining turlangan shakllari ham o'zaro omonim bo'la oladi?
1) soch, 2) shox, 3) sir, 4) tovon, 5) es 6) bot
A) 4, 5, 6 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 6
10. Quyida berilgan necha so'zning ma'nosi metonimiya usulida ko'chishi mumkin?
samovar, ko'zoynak, zal, qadah
A) 3ta B) 2ta C) 1ta D) 4ta
11. Quyidagi qaysi gapda sof ko'makchi holni shakllantirgan?
A) *Bola boshini qo'llari orasiga qo'yib, Boysun tog'i uzra charx urayotgan bulutlarga qarab jim qoldi.*
B) *Peshanangiz devorga qarsillab urilgandan keyin esingiz kiradi.*
C) *U soy yoqalab yotqizilgan omonat toshlardan sakrab-hakkalab, ohista yurib kelardi.*
D) *Mustafo Galatepaning chekkarog'ida, Ubaydullo Maxsumning hovuzi tarafga turtib chiqqan qir tumshug'ida yashaydi.*
12. Qaysi gapda fe'lning vazifa shakllaridan uch turi ishtirok etgan?
A) *Necha kundan beri qattiq esayotgan shamol tinavermagach, tog'ga chiqishni qoldirdi.*
B) *Hammamiz orziqib kutilayotgan bayramni munosib kutib olishga harakat qilyapmiz.*
C) *- Odamlar sizni qattiq hurmat qilishadi, shuning uchun sha'ningizga dog' tushiradigan ish qilmang, - dedi u kuyunib.*
D) *U so'ridagi urunib qolgan ko'rpachani yig'ishtirib olib, mehmonlar kelguncha joy tayyorlashga ulgurdi.*
13. Davomiy bo'lishsizlik ma'nosini ifodalagan ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasini qatnashgan gapni aniqqlang.
A) *Yomonga yondashgan yiqilmay qolmas, oxiri chuqurga tiqilmay qolmas.*
B) *Shundan so'ng bu haqda hech kimga gapirmay qo'ydi.*
C) *Sizlar el-yurt ahvolidan xabar olmaysiz, faqat o'z manfaatingizni o'ylaysiz, el-yurt manfaatini ko'zlamaysiz.*
D) *Men u odamni baholaganimda yanglishmadim, to'g'ri so'zladim.*
14. Tabiat ishlariga qo'pollik bilan aralashish tufayli paydo bo'lgan kasalliklarni farmatsevtika zavodlarida ishlangan dorilar bilan tuzatib bo'lmaydi. Ushbu gapdagi yordamchi so'z turkum(lar)iga mansub birliklar hamda ular bilan shakllangan bo'laklar haqida berilgan noto'g'ri fikrni aniqqlang.
A) *Yordamchi so'zlarning barchasi ko'makchilar hisoblanadi.*
B) *Yordamchi so'zlar bilan shakllangan bo'laklarning kesimga bilvosita va bevosita tobelanishi kuzatiladi.*
C) *Yordamchi so'zlar ikki o'rinda otni, bir o'rinda fe'lni hokim qismga tobelantirgan.*
D) *Yordamchi so'zlar bir o'rinda hol, ikki o'rinda to'ldiruvchini shakllantirishga xizmat qilgan.*
15. Bemavrid keshlarimning ko'zlarida yosh ko'rsam, Bir mard bilan nopokning taqdirin tutash ko'rsam, Qaysi bir begunohni keng yo'lda adash ko'rsam, Bir betayin kimsaning oyog'ida bosh ko'rsam, Ko'nglimda armon yotar Terskaydagi qor misol. Ushbu she'riy parcha murakkab qo'shma gapning qaysi turiga mansub?
A) *qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap*
B) *aralash murakkab qo'shma gap*
C) *bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap*
D) *bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap*
16. Qaysi javobdagi juftlik o'zaro bir umumiy ma'noni ifodalay olmaydi?
A) *ganch-boylik* B) *gangimoq-esankiramoq* C) *norg'ul-barzangi* D) *tanti-mard*
17. Quyida berilgan qaysi gaplarda tire(lar) tushirib qoldirilgan?
1. Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam o'qish, o'qiganda ham a'lo o'qish.
2. Rasadhona zimiston bo'lsa ham, Ali Qushchining o'tkir ko'zlari darrov ko'rdi poygakda bir kimsa gavdasi bilan eshikni to'sib, qaqqayib turardi.
3. Oluta bolani bag'riga olgan Mahkam aka shu.
4. Mingbuloq o'zi yaxshi, suvi serob, lekin u qarovsiz.
A) 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 2, 3 D) 1, 3
18. Holning uch ma'noviy turi yasama so'zlar bilan ifodalangan gapni aniqqlang.
A) *Ulardan biri akamning qayerdaligini so'ragan edi, men ertalab uloqqa kutganligini aytdim.*
B) *Keksa otasining qaddin dol etib Ketib borar edi farzand shu zamon.*
C) *Men har kuni o'zimni tergayman: maslahatlarim yetarlicha samimiymikan?*
D) *Saharlab choyni nari-beri ichib, otxonaga yugurdim.*
19. Qaysi javobda uch o'rinda to'ldiruvchili boshqaruv munosabatli so'z birikmasi mavjud?
A) *Yalqov o'ylab charxpalak topgan, Ijod qilgan shamol tegirmon.*
B) *Parvoz etsam, yuksak samoda Zamonaviy laynerda bukun.*
C) *Ishchan azal tinmay yer chopgan, O'g'ir tuygan, sovurgan somon.*
D) *Dangasalar esa o'y surib, Yotish uchun izlashar chora.*
20. Qaysi gapda ham yig'iq, ham yoyiq undalma qo'llangan?
A) *Chin uyingda sen qolursan, Qo'sh qanotim, yaxshi qol!*
B) *Yellar, bir daqiqqa to'xtang esishdan, Sernavo bulbullar, sayramang biroz.*
C) *Sen beshik emassan, dorsan, tabiat, Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!*

- D) *Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?*
21. Berilgan parchada uchta so'zga nisbatan bevosita hokim qism vazifasini bajargan?
Dunyodagi tinchliksevar va madaniy xalqlar o'zaro insoniy muloqotni salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq urf-odatlar bor.
A) faqat kesim
B) to'ldiruvchi, kesim
C) ega, kesim
D) ega, to'ldiruvchi, kesim
22. Quyida berilgan qaysi so'zlarning yetakchi morfemasi va yasali asosi bir xil shaklda bo'ladi?
1) salomlash; 2) temirchilik; 3) kulochilik; 4) ustachilik; 5) atama
A) 1, 3, 4, 5 B) 4, 5 C) 2, 5 D) 1, 3, 4
23. To'rt o'rinda yasama so'z qo'llangan gapni toping.
A) *Mutolaa qilganlarga va eshitganlarga shifo baxsh etadigan "Guliston" degan kitob yozishim mumkin.*
B) *Qo'li bog'liq yashashdan o'lim a'lodir, Bosqinchi yov o'limga mahkum balodir.*
C) *Kimki tinch yashashni istasa, pastkash odam bilan aslo do'stlashmaydi.*
D) *Kimki bo'lsa dilozor, Undan el-u yurt bezor.*
24. Tarkibida turlangan so'z qatnashgan gap(lar) berilgan javobni toping.
1. Bu voqea xuddi kechagina bo'lgandek, ammo darrov uch yil o'tibdi. 2. Chuqur va xayolchan ko'zlarida sirli va sehrli bir holat aks etadi. 3. Yigit to'satdan gandarab borib tizzalab qoldi. 4. Shu payt birdan eshik sharaqlab ochildi-yu, Erto'ev kirib keldi.
A) 2, 3 B) 2 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
25. "Bir tup o'rik... Bodroq-bodroq bo'lib gullaganida Ko'lankasi bilan do'st tutinibdi", degan misralar muallifini aniqlang.
A) Muhammad Yusuf B) To'ra Sulaymon C) Mirtemir D) Asqad Muxtor
26. Alisher Navoiyning "Mehr va Suhayl" hikoyasida Mehr chohdagi bandini nima maqsadda qutqaradi?
A) *Jobir bilan jang qildirish maqsadida*
B) *bandi orqali Suhaylga xabar yuborish maqsadida*
C) *Suhayl ekanligini bilgani uchun*
D) *otasiga xabar jo'natish maqsadida*
27. Qaysi asar qahramoni o'zini "Xudoning yaratgan sheri" deb aytadi?
A) *"Sohibqiron" dramasi*
B) *"Alpomish" dostoni*
C) *"Ravshan" dostoni*
D) *"Ulug'bek xazinasi" romani*
28. Qaysi ijodkor she'rlaridan birida o'zini "kuyib o'rtangan elning xoki, nazm elining choloki, xonning boshining pokidurman" deya ta'rif beradi?
A) Avaz O'tar B) Turdi C) Zavqiy D) Muqumiy
29. G'azali musajja usulida bitilgan g'azalni belgilang.
A) *"Jong'a chun dermen..."* g'azali (Navoiy)
B) *"Shifoyi vasl qadrin..."* g'azali (Fuzuliy)
C) *"Mani jondan o'sondirdi..."* g'azali (Fuzuliy)
D) *"Mani jondan o'sondirdi..."* g'azali (Fuzuliy)
30. Sergey Yesenin qaysi she'ri mazmunida Eron bilan Rossiyada ayollarga munosabat masalasidagi farqlar aytib o'tiladi?
A) *"Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan..."*
B) *"Bu dunyoda men bir yo'lovchi..."*
C) *"Xurosonda bir darboza bor..."*
D) *"Singlimga xat"*
31. Menga yaxshi dedi yor birla o'lmak, Na lozim g'am bilan dunyoda qolmak! Shu so'zni ayt, tig' urdi o'zig'a, Ko'rinmay qoldi keng olam ko'zig'a. Ushbu she'riy parchada qaysi adabiy qahramon holati tasvirlangan?
A) Farhod, "Farhod va Shirin"
B) Majnun, "Layli va Majnun"
C) Suhayl, "Suhayl va Guldursun"
D) Suhayl, "Sab'ayi sayyor"
32. Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga tegishli ma'lumotni belgilang.
A) *Adabiyotimiz tarixida juda kam uchraydigan musoviyattarafan shaklida she'r yozgan.*
B) *Sharq musiqasining yozuvdagi ifodasi uchun "Tanbur chizig'i" deb nom olgan notalar tizimini kashf qilgan.*
C) *Uning "Sabog'a xitob" she'ri Istambulda yozilgan.*
D) *Otasi Akmal taxallusi bilan she'rlar yozgan.*
33. "Bir kun yilonlar jam bo'lib aydilar: bizlar laklak bilan muros qilib qismat qilolir har kunda bir yilonni oning xo'rokiga berali, o'zgamizga zahmat bermasun. Barchalari aydilar: andoq bo'lsun. Bir yilonni elchi qilib laklakning yoniga yibordilar". Laylak va yilonlar haqidagi hikoyatdan olingan ushbu parcha. qaysi asarda, keltirilgan?
A) *"Guliston" (Sa'diy Sheroziy)*
B) *"Gulistoni bit-turkiy" (Sayfi Saroyi)*
C) *"Zarbulmasal" (Muhammadsharif Gulxaniy)*
D) *"Miftoh ul-adl" (Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja.)*
34. Quyidagi qaysi asarlarni Komil Xorazmiy o'zbek tiliga tarjima qilgan?
1) Mirxond, "Ravzat us-safo"; 2) Farohiy, "Mabbub ul-qulub"; 3) Badriddin Hiloliy, "Shob va gado"; 4) Kaykovus, "Qobusnoma"; 5) Faxriddin Ali Safiy, "Latoyif at-tavoyif"
A) 2, 5 B) 1, 3, 4 C) 2, 4 D) 1, 3, 5
35. Xotimasida "navro'z oyi"da tugatilganligi zikr etilgan asarni aniqlang.
A) *"Latofatnoma"* B) *"Qutadg'u bilig"* C) *"Muhabbatnoma"* D) *"Suhayl va Guldursun"*
36. Tig'i ishq-u xanjari nozingdin o'ldum subh-u shom, Dilfigor-u dilfigor-u dilfigor-u dilfigor. Baytda qo'llangan she'riy san'atlar turini aniqlang.
A) *tanosub, tardi aks* B) *tanosub, takrir* C) *tanosub, tarse'* D) *tashbeh, talmeh*

BIOLOGIYA

37. Kulrang tanali, kalta qanotli oq ko'zli erkak drozofila pashshasi (otasi qora tanali, qizil ko'zli) qanday tipdagi gametalarni hosil qilishi mumkin?
A) AbX^d , abX^d , AbY , abY
B) AbX^d , aBY , AbY , abX^d
C) AbX^d , abX^d , AbY , abY
D) ABX^d , abY , AbX^d , aBY
38. Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyaning past bo'lishi retsessiv belgilar hisoblanib, bitta xromosomada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik barglari burishgan past bo'lyi o'simlik bilan chatishtirilib 1200 ta o'simlik olindi. Shundan 216 ta organizm ota-onaning ayrim belgilarini o'zida mujassamlashtirilgan. Retssiv belgiga ega bo'lgan organizmlar sonini aniqlang.
A) 492 B) 984 C) 600 D) 108
39. Odamda giperxolesterinuriya dominant belgi sifatida autosomadagi genlar ishtirokida irsiylanadi. Gomozigotalilarda kasallik ateroskleroz va terida xavfsiz o'simlik paydo bo'lishi bilan kechadi. Geterozigotalilarda kasallik yengil o'tib, faqatgina qonda xolesterin miqdorining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi. Gipertrixoz Y xromosomada joylashgan. Giperxolesterinuriyaning yengil formasi bilan kasallangan ayol o'ziga o'xshash va gipertrixoz bilan kasallangan erkakka turmushga chiqdi. Farzandlarning gipertrixoz bilan tug'ilish ehtimoligini (%) aniqlang.
A) 25 B) 100 C) 75 D) 50
40. i-RNK zanjirida 60 ta triplet mavjud. Undagi nukleotidlarning 1/3 qismi uratsilli, 1/5 qismi adeninli, 20% i sitozinli nukleotidlardan iborat. Nuklein kislotalar tarkibidagi nukleotidlar fosfodiefir bog'lar orqali tutashadi. Shu i-RNK fosfodiefir bog'lar sonini (a) va nukleotidlar tarkibini (b) toping.
A) $a=179$; $b-U=20$, $A=12$, $C=12$, $G=16$
B) $a=179$; $b-U=60$, $A=36$, $C=36$, $G=48$
C) $a=59$; $b-U=20$, $A=12$, $C=12$, $G=16$
D) $a=180$; $b-U=60$, $A=36$, $C=36$, $G=48$
41. O'simlik hujayrasida energetik almashinuvning ikkinchi bosqich reaksiyalari... sodir bo'ladi.
1) anaerob sharoitda; 2) kislorod sarfi bilan; 3) glyukozaning parchalanish hisobiga; 3) sut kislotaning parchalanish hisobiga; 4) karbonat angidridning ajralishi bilan; 5) sut kislotaning hosil bo'lishi bilan; 6) CO₂ ning sarf bo'lishi bilan

- A) 1,3,5 B) 2,6 C) 2,5,7 D) 1,4
42. Tetraploid navli qalampirning 35 ta birlamchi jinsiy hujayralaridan hosil bo'lgan spermiylarning noma'lum qismi urug'lantirishda qatnashdi. Urug'lantirishda qatnashmagan spermiylardagi jami xromosomalar soni urug'lantirishda qatnashgan spermiylardagi jami xromosomalar sonidan 8064 taga ko'p bo'lsa, markaziy hujayrani urug'lantirgan spermiylar sonini aniqlang.
A) 56 B) 49 C) 28 D) 72
43. Qaysi javobda o'simliklar sistematikasi kichik sistemati guruhdan katta sistemati guruhga qarab to'g'ri ketma-ketlikda ko'rsatilgan?
1) tokdoshlar; 2) terakbarligi liftok; 3) magnoliasimonlar; 4) ikki urug'pallalilar; 5) liftok; 6) magnoliyatoifalar; 7) yopiq urug'lilar; 8) qoqio'ldoshlar; 9) madaniy tok
A) 2,9,8,3,7 B) 5,2,1,4,7 C) 5,2,1,3,6 D) 2,5,1,4,6
44. Xantoria haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.
A) avtotrof oziqlanadi
B) tarkibida murein uchraydi
C) xitin qobiqli hujayralari bor
D) vegetativ usulda ko'payadi
45. Peshonasi past, qosh usti suyagi bo'rtib chiqqan, pastki jag'i katta, tishlari yirik, iyagi rivojlanmagan, miyasining hajmi 850-1220 sm³ bo'lgan. Ushbu ta'rif odamning qaysi ajdodlariga mansub?
A) kromanyon B) neandertal C) pitekanthrop D) sinantrop
46. Organizm (a) va biogeotsenoz (b) darajadagi hodisalarni aniqlang.
1) gomologik xromosomalar orasida konyugatsiya jarayoni; 2) kapalak qurtining metamorfozi; 3) genlar dreyfi; 4) translokatsiya; 5) lishaynikda suvo't va zamburug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovulning kenja turning paydo bo'lishi; 7) yaylovda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati
A) a-3,4; b-7 B) a-2,6; b-3 C) a-2,5; b-2 D) a-1,2; b-3,5
47. Hidrofit (a) kserofit (b) ekologik guruhlarga mansub yuksak o'simliklarni aniqlang.
1) ro'vak; 2) suv yong'og'i; 3) sarsazan; 4) iloq; 5) suv qirqqulog'i; 6) buyurg'un; 7) laminariya; 8) qamish
A) a-4,8; b-3,6 B) a-7,8; b-2,5 C) a-1,2; b-3,8 D) a-2,5; b-4,6
48. Drosophila pashshasining qaysi belgilarini ifoda etuvchi genlar har xil gomologik xromosomalarda joylashgan?
A) tananing kulrang bo'lishi va qanotning normal uzunligi
B) ko'zning oq rangi va ko'zning qizil rangi
C) tananing qora rangi va qanotning kalta bo'lishi
D) tananing kulrang bo'lishi va ko'zning oq rangi
49. Bosh miyaning stvol qismida (a) va orqa miyada (b) joylashgan vegetativ nerv sistemasi markazlarining funksiyalarini aniqlang.
1) yurakning minutlik sistolik hajmini oshiradi; 2) o'pkalar ventilatsiyasini kuchaytiradi; 3) ko'z qorachig'ini kengaytiradi; 4) me'da shirasi ishlab chiqarilishini kuchaytiradi; 5) siydik pufagi muskullarini bo'shashtiradi; 6) siydik pufagi muskullarini qisqartiradi
A) a-4; b-1,2 B) a-1; b-3,6 C) a-2; b-4,5 D) a-5; b-2,4
50. Odam organizmida maksimal bosim yuzaga kelgan vaqtda...
A) qoricha diastola holatida bo'ladi; simpatik nerv sistemasi ta'sir qiladi
B) ikki tavaqali klapan ochiq bo'ladi; bo'lmacha sistola holatida bo'ladi
C) yarimoysimon klapan ochiq bo'ladi; qorincha diastola holatida bo'ladi
D) yarimoysimon klapan ochiq bo'ladi; bo'lmacha diastola holatida bo'ladi.
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odam organizmida A vitaminining yetishmasligi natijasida...
A) enterit kasalligi kelib chiqadi, epiteliy to'qimasining yangilanishi buziladi
B) miyalar qonaydi, tishlar to'kiladi, traxeyaning shilliq pardasi yallig'lanadi
C) nerv tolalari falajlanadi, bronxlarning shilliq pardasi yallig'lanadi
- D) qo'l-oyoq muskullari uvushib og'riydi, nerv tolalari falajlanadi
53. Sezgi analizatorlari haqidagi to'g'ri fikri aniqlang.
A) Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siypalashni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.
B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.
C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilimfa suyuqligi bo'ladi.
D) Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Bezgak (a), terlama (b), leyshmanioz (c) qo'zg'atuvchilari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang
A) a-bakteriya; b-virus; c-sodda hayvon
B) a-sodda hayvon; b-bakteriya; c-sodda hayvon
C) a-sodda hayvon; b-bakteriya; c-bakteriya
D) a-sodda hayvon; b-virus; c-bakteriya
55. Daryo qisqichbaqasi organlari ularning soni bilan juftlang.
a) 10ta; b) 8 ta; c) 6ta; d) 4ta; e) 2ta
1) murakkab ko'zlari; 2) dum suzgichi; 3) pastki jag'lari; 4) haqiqiy yurish oyoqlari; 5) qisqichlari; 6) ikki shoxli qorinoyoqlari; 7) mo'ylovlar; 8) jag'oyoqlari; 9) yuqori jag'lari
A) a-6; b-4; c-8; d-3,7,9; e-1,2,5
B) a-6; b-4; c-8; d-2,3,7; e-1,5,9
C) a-6; b-4; c-8; d-2,7,9; e-1,3,5
D) a-6; b-4; c-8; d-3,5,9; e-1,2,7
56. Alligator bilan bir sinfda (a) va begemot bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) a-gekkon, kobra, gavial; b-arxar, g'izol, zubr
B) a-And kondori, kobra, ilonbo'yin toshbaqa; b-arxar, bizon
C) a-aureliya, kabarga, yelik; b-to'ng'iz, gibbon, oqcha
D) a-kaputsin, kapcha, gatteriya guattara; b-muflon, g'izol, bizon
57. Ko'rshapalak haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni belgilang.
1) oldingi oyoqlari salamdraning oldingi oyoqlari bilan o'zaro gomologik organ; 2) o'ljasini havoda og'zi bilan tutib ovlaydi; 3) ko'rgalak bilan bir sinfga mansub; 4) tuxumlaridan jish bola chiqadi
A) 3,4 B) 2,4 C) 1,3 D) 1,2
58. Fototrof organizmlarda parazitlik qiluvchi, hujayra qobig'i xitin moddadan iborat organizmlarni belgilang.
1) gommoz qo'zg'atuvchisi; 2) vertitsillium; 3) zang zamburug'i; 4) nematoda; 5) qorakuya; 6) nozema; 7) tripanosoma
A) 4,6 B) 1,6 C) 3,7 D) 2,5
59. Golji apparatiga ega bo'lgan kasallik qo'zg'atuvchilarni aniqlang.
1) tripanosoma; 2) gommoz qo'zg'atuvchisi; 3) vertitsillium; 4) qorakuya; 5) bezgak paraziti; 6) quturish kasalligi qo'zg'atuvchisi; 7) qoqshol qo'zg'atuvchisi; 8) qizilcha qo'zg'atuvchisi; 9) leyshmaniya qo'zg'atuvchisi; 10) ichburug' amyobasi
A) 1,6,10 B) 2,5,7 C) 8,9,10 D) 1,3,4
60. Xloroplastlarga ega eukariot organizmlarga zarar keltiruvchi xloroplastlarga ega bo'lmagan eukariot organizmlarni aniqlang.
1) gommoz qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertitsill; 4) agrobakterium; 5) leyshmaniya; 6) zang zamburug'i; 7) tamaki mozaikasi
A) 1,4 B) 2,5 C) 6,7 D) 3,6
61. Shimpanze somatik hujayrasida sodir bo'ladigan mitoz jarayoni haqida to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) profazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta;
2) anafazada xromosomalar soni 96 ta;
3) metafazada ikki xromatidali autosoma xromosomalar soni 46 ta;
4) anafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 96 ta; 5) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta; 6) interfaza G₁ davrida ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta
A) 1,4 B) 3,5 C) 4,5 D) 2,6
62. Bir-biriga yaqin turlardan tashkil topgan sistemali birlikka mansub toza liniyalarni aniqlang.
1) jaydari g'o'za; 2) Meksika g'o'zasi; 3) kanop; 4) Misr g'o'zasi; 5) "Yulduz"; 6) "Buxoro-9"; 7) "Omad"; 8) "Toshkent-1"; 9) bo'ritaroq; 10) "Sangzor"

- A) 5,6,7 B) 1,2,4 C) 7,8,10 D) 1,3,9
63. BamHI restriktazasi GGATCC nukleotidlar ketma-ketligini tanib, GG nukleotidlari orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 134,3 nm uzunlikdagi DNK molekulasi BamHI restriktazasi orqali A,B,C,D,E bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekulasidagi vodorod bog'lar sonidan 4% ga kam. Agar nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, dastlabki DNK molekulasi tarkibidagi nechta vodorod bog'lari A va T nukleotidlari orasida joylashgan?
A) 480 B) 354 C) 370 D) 320
64. Nastarin qaysi jihatlar bilan kamxastakdan farq qiladi?
1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqqligi; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarini novdada joylashuvi; 5) hayotiy shakli; 6) tanasining yog'ochlashganligi
A) 1,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 2,6
65. Barglari novdada qarama-qarshi joylashgan, gullari qiyshiq o'simliklarni aniqlang.
1) kiyiko't; 2) beda; 3) loviya; 4) marmarak; 5) isirg'ao't; 6) nastarin; 7) rayhon; 8) afsonak
A) 2,3,5 B) 1,2,6,7 C) 1,6,7 D) 3,4,6,8
66. Quyidagi meva turlari qaysi o'simlik navlariga xos ekanligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
a) danakli meva; b) rezavor meva; c) don meva; d) qovoq meva; e) ko'sak meva;
1) qozidastor; 2) Namangan; 3) zarg'aldoq; 4) gultish;
5) Samarqand-3; 6) bargi; 7) buvaki; 8) sanzor; 9) yulduz
A) a-3; b-7; c-8; d-6; e-5
B) a-3; b-1,4,7; c-8; d-2,9; e-5
C) a-1; b-4,5; c-8; d-7; e-2
D) a-3; c-1,6; c-8; d-7; e-4
67. Bo'ymadaron haqidagi noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.
A) moychechakdoshlar oilasiga kiradi
B) to'pguli o'rma bargchalar bilan qoplangan
C) shuvoq turkumi vakili
D) to'pguli asosan naychasimon gultajibarglardan tashkil topgan
68. Evernia haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.
A) atmosfera havosi tozaligini ko'rsatuvchi mezon
B) tuproq hosil bo'lishida ishtirok etadi
C) poyasida xitin moddasi uchraydi
D) zamburug' bilan bir hujayrali suvo'tining simbiozi
69. Funariyada sporadan rivojlanuvchi bo'g'inda qanday qismlar hosil bo'ladi?
1) yashil ipcha; 2) kurtakcha; 3) poya; 4) barg; 5) arxegoniy;
6) sporangiyband; 7) anteridiy; 8) sporalar; 9) rizoid; 10) sporangiy
A) 1,2,9 B) 5,7,8 C) 6,8,10 D) 3,4,10
70. Quyidagi umurtqasiz organizmlarning muhit sharoitiga moslanuvchanlik turlari-ogohlantiruvchi rang (I) va mimikriya (II) ga mos keluvchi javoblar bilan juftlab ko'rsating.
1) chupchikning ingichka novdaga taqlidi; 2) tillaqo'ng'iz qanotining rangi; 3) g'o'ng'illlovchi pashshaning ariga o'xshash qiyofasi; 4) kakku tuxumining bulbul tuxumiga o'xshashligi; 5) belyankaning oynasimon kapalakka o'xshashligi; 6) suvarakning "xonqizi"ga o'xshashligi; 7) baqachanoqning daraxt kurtagiga o'xshashi; 8) ko'lbuqa patlarining qamishni eslatishi
A) I-2,7; II-4
B) I-2; II-3,6
C) I-2,5; II-8
D) I-1; II-3,6
71. Bitta biografik viloyatda tarqalgan hayvonlarni belgilang.
A) yalqov, tapir, vampir, pingvin, malla revun, shinshila, lemur, emu, vixuxol, skuns
B) kabarga, los, chittak, ot, yelik, bo'ri, kar, vixuxol, qunduz, tustovuq, zubr, maral, yovvoyi, qo'y
C) jirafa, agama, kapachi qush, echkema, nosorog, zebra, lemur, zubr, martishka, begemot
D) antilopa, tapir, fil, bug'u, qirg'ovul, sezarka, tovus, orangutan, nosorog, echkema
72. Organizmlarning qaysi sistemati guruhlar aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?

- 1) tog'ayli baliqlar; 2) suyakli baliqlar; 3) tikandum skat; 4) sudralib yuruvchilar; 5) panjaqanotli baliqlar; 6) latimeriya; 7) soxta kurakburun
A) 1,2,3 B) 1,2,4 C) 4,5,7 D) 3,6,7

KIMYO

73. Necha gramm natriy nitrat tarkibida 28 g azotli ozuqa elementi bo'ladi?
A) 102 B) 136 C) 170 D) 85
74. Qaysi birikmalarda kislorod -2 oksidlanish darajasini namoyon qiladi?
A) KO_2
B) OF_2
C) H_2O_2
D) H_2O
75. Quyidagi berilganlardan faqat oksidlovchilarni ajrating.
1) $NaMnO_4$; 2) H_2SO_4 ; 3) H_2S ; 4) CrO_3 ; 5) NH_3 ; 6) $HClO_4$
A) 1,2,3 B) 1,2,4,6 C) 4,5,6 D) 1,2,5
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 3700 ta azot atomi bor bo'lsa, shu DNK ning qo'sh spirali tarkibida nechta vodorod bog' mavjud? (nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)
A) 1200 B) 1300 C) 800 D) 1000
77. Fosfor mo'l miqdordagi kislorodda yondirilganda olingan oksid 200 g 9,8% li fosfat kislotaga eritmasida eritilganda fosfat kislotaga miqdori 3 marta ortdi. Olingan eritmaga o'yuvchi natriy eritmasidan 540 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi NaOH massasidan 6,5 marta katta.
A) 72 B) 98,4 C) 14,2 D) 85,2
78. Saxaroza gidrolizga uchratilgandan uning massasi 3,6 grammga ortdi. Gidroliz mahsulotlari nikel katalizatori ishtirokida vodorod bilan qaytarildi. Olingan mahsulot massasini (g) aniqlang.
A) 72,8 B) 36,4 C) 44 D) 18,2
79. Propanol, fenol va sirka kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanganda 8,96 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashma 200 g NaOH eritmasi (NaOH ning foiz konsentratsiyasi suvnikidan 84% ga kam) bilan reaksiyaga kirisha oladi. Xuddi shunday boshlang'ich aralashma bromli suvdan o'tkazilganda 66,2 g cho'kma tushishi ma'lum bo'lsa, dastlabki aralashmadagi fenol massasini (g) aniqlang.
A) 47 B) 18,8 C) 37,6 D) 9,4
80. sp^3 -s bog'lar soni 2 ta bo'lgan molekullarni tanlang.
1) sirka kislotaga; 2) suv; 3) pentadiyen-1,4; 4) sulfat kislotaga; 5) metan kislotaga; 6) oksalat kislotaga
A) 1,4,5,6 B) 1,6 C) 3,4,5,6 D) 2,3,4,6
81. Hozirda alkaloidlar aralashmasidan toza individual alkaloidlarni ajratib olish uchun qanday usuldan foydalaniladi?
A) haydash B) xromatografiya C) distillatsiya D) filtrlash
82. Ksantoprotein reaksiyasi asosida tirozinga konsentrlangan nitrat kislotaga ta'sir ettirilganda 75% unum bilan 406,5 g sariq rangli dinitrobirikma hosil bo'ladi. Reaksiya uchun necha mol tirozin olingan?
A) 2,5 B) 1,5 C) 2 D) 3
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO_2 gazi, 0,2 mol benzoy kislotaga va 0,4 mol tereftal kislotaga hosil bo'ldi. Tereftal kislotani hosil qilgan uglevodorod massasini (g) aniqlang.
A) 38 B) 45 C) 26,8 D) 53,6
84. Mol nisbatlari mos ravishda 3:2:1 bo'lgan etin, eten va etandan iborat aralashma 6,4 kg bromli suvni rangsizlantiradi. Agar eritmadagi bromning massasi suvning massasidan 49 marta kichik bo'lsa, reaksiya uchun olingan gazlar aralashmasi umumiy miqdorini (mol) aniqlang.
A) 0,3 B) 0,6 C) 1 D) 0,2
85. Oltinugurt uchun quyidagi allotropik holat xos emas?
A) kvadrat B) plastik C) monoklinik D) rombik
86. CO va CO_2 gazlar aralashmasining 16,8 litri (n.sh)da $14,5 \cdot N_A$ dona elektron bo'lsa, aralashmaning massasini (g) toping.
A) 18 B) 36 C) 27 D) 29

87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.
A) 1/9; 2/3; 2/9
B) 2/5; 2/5; 1/5
C) 1/7; 3/7; 3/7
D) 1/4; 1/4; 1/2
88. ${}_{102}^{a}\text{No} \rightarrow {}_b^c\text{Cm} + x {}_2^4\alpha + y {}_B^1$ yadro reaksiyasida 12,7 mg No yemirilishidan hosil bo'lgan elektronlar sonini aniqlang.
($a-x=249$; $x+y=9$)
A) $36,12 \cdot 10^{23}$
B) $12,04 \cdot 10^{19}$
C) $18,06 \cdot 10^{18}$
D) $96,32 \cdot 10^{18}$
89. Mis (II) sulfat kristallogidрати tarkibida kislorodning massa ulushi vodorodnikidan 16 marta katta bo'lsa, bir mol tuzga necha mol suv to'g'ri keladi?
A) 4 B) 2 C) 3 D) 1
90. Tarkibida massa bo'yicha 36,5% Me, 25,4% S va 38,1% O bo'lgan moddaning formulasini aniqlang.
A) BaSO_4
B) $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$
C) BaSO_3
D) Na_2SO_3
91. $2A + xB \rightarrow 2C$ reaksiyasida $0,04 \cdot 10^2$ mol A moddaning 50% sarflangan, B ning 50% ortib qolgan. Jarayon 1 litrli idishda olib borilgan bo'lsa, B ning necha moli sarflangan? ($K_m=1$)
A) 1 B) 4 C) 2 D) 5
92. 1,5 mol modda 516 g suvda eritilganda uning 14% li eritmasi olindi. Eritgan moddaning massasini (g/mol) aniqlang. (Reaksiya sodir bo'lmaydi.)
A) 63 B) 40 C) 56 D) 98
93. 5 molyalli eritma tayyorlash uchun takibida 140 g KOH saqlagan 4 molyalli eritmaga yetarli miqdorda KOH qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadagi KOH ning massa ulushini (%) hisoblang.
A) 16,2 B) 21,9 C) 12,9 D) 39,1
94. Atomlar soni teng bo'lgan maltoza va suv 25°C da aralastirilganda 360 g cho'kma va 2700 g to'yingan eritma hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan to'yingan eritmaning konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 50 B) 48 C) 69 D) 72
95. Eritmaning pH qiymati pOH qiymatidan 2,5 marta kam bo'lsa, pH qiymatini aniqlang.
A) 6 B) 4 C) 7 D) 5
96. Quyidagi qaysi moddalar ta'sirlashganda faqat o'rta tuz hosil bo'ladi?
A) natriy gidroksid va vodorod sulfid
B) alyuminiy gidroksid va sulfat kislota
C) litiy oksid va xlorid kislota
D) kalsiy gidroksid va bromid kislota
97. $\text{PCl}_3 + \text{KMnO}_4 + \text{H}_2\text{O} = \text{H}_3\text{PO}_4 + \text{KCl} + \text{HCl} + \dots$ Reaksiya tenglamasini tugallang va Mn^{7+} ning qanday birikmaga o'tishini aniqlang?
A) K_2MnO_4
B) $\text{Mn}(\text{OH})_2$
C) MnCl_2
D) MnO_2
98. 19,6 g H_2SO_4 suvda eritilganda eritmada 0,54 mol ion mavjud bo'lsa, kislotaning dissotsialanish darajasini (%) aniqlang. (Suvning dissotsilanishi hisobga olinmasin)
A) 90 B) 88 C) 85 D) 96
99. 69,6 g noma'lum metall qo'sh oksidi Al yordamida qaytarilganda 40,8 g Al_2O_3 hosil bo'ldi. Metallni toping?
A) Ni B) Pb C) Fe D) Mn
100. CaCO_3 va $\text{Ca}(\text{OH})_2$ dan iborat aralashma doimiy massaga qadar qizdirilganda keyin qoldiq massasi dastlabki aralashma massasining 60% ini tashkil qildi. Boshlang'ich aralashmadagi moddalarning massa ulushini (%) aniqlang.
A) 79,7; 20,3
B) 74,6; 25,4
C) 31,8; 68,2
D) 45,5; 54,5
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,1 B) 0,2 C) 0,3 D) 0,4
102. Xlorofill tarkibida 3% ni tashkil qiladigan metallardan olingan nitrat tuzining kristallogidрати tarkibida kislorod atomlari soni vodorod atomlari soniga teng bo'lsa, kristallogidратning molyar massasini (g/mol) hisoblang.
A) 156 B) 256 C) 200 D) 176
103. $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$ ifodada x, y, z, z ko'effitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 5:1:4:4 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.
A) 60 B) 80 C) 75 D) 50
104. He, Ne va Ar dan iborat 17,92 litr (n.sh) aralashma tarkibida neonning hajmi geliy va argon hajmlari yig'indisidan uch marta kichik bo'lsa, geliyning massasini (g) hisoblang. ($\omega(\text{Ar})=0,4$)
A) 1,5 B) 2,0 C) 0,5 D) 1,0
105. Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotani 54,6 g 10 molyalli eritmasidagi HCl tugaguncha eritilganda H_2 gazi ajraldi va MeCl_2 ning 32,2% li eritmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan MeCl_2 eritmasi massasini (g) aniqlang. (Metall suv bilan reaksiyaga kirishmaydi deb hisoblansin)
A) 71 B) 66 C) 59 D) 46
106. Quyidagi anion bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzlarni ajrating.
1) $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$; 2) K_2CO_3 ; 3) $\text{CH}_3\text{COONH}_4$; 4) NaNO_2 ; 5) $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$; 6) $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$
A) 2,4,6 B) 1,4,5 C) 1,3,4 D) 2,6
107. Alkan molekulyar massasi uning takibidagi uglerod va vodorod atomlari massalari ayirmasidan (m.a.b) 12 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) etan B) butan C) pentan D) propan
108. Noma'lum alkan stexiometrik nisbatda olingan kislorodda yondirilganda hosil bo'lgan moddalar miqdorining dastlabki moddalar miqdoriga mol nisbati 1,2 ga teng bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) propan B) butan C) etan D) pentan